BOBORAHIM MASHRAB SHE'RIYATIDA PRESEDENT NOMLARNING LINGVOPOETIK VA LINGVOKULTUROLOGIK TABIATI

Nishonova Xurshida Yusufjanovna,
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
Namangan filiali Xorijiy tillar kafedrasi v.b dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada Boborahim Mashrab she'riyatida qo'llangan presedent nomlarning lingvopoetik va lingvokulturologik tabiati tadqiq etiladi. Presedent nomlarning shoir badiiy tafakkuridagi o'rni, ularning milliy-madaniy xotirani ifodalash, tarixiy, diniy, tasavvufiy va adabiy-estetik mazmunni ixcham shaklda ifodalash imkoniyatlari tahlil qilinadi. Mashrab poetik matnida Qur'on va hadis obrazlari, payg'ambarlar, avliyolar, tarixiy shaxslar hamda mumtoz adabiyot vakillari nomlarining qo'llanish xususiyatlari ochib beriladi. Presedent nomlarning nominativ vazifadan tashqari, ramziy, assotsiativ, baholovchi va ekspressiv-semantik funksiyalari aniqlanadi. Shuningdek, bunday nomlarning shoirning irfoniy dunyoqarashi, tasavvufiy tafakkuri va xalqning lingvomadaniy qadriyatlari bilan uzviy aloqasi yoritiladi. Tadqiqot natijalari Mashrab she'riyatida nom va obraz munosabatining lingvopoetik mexanizmlarini hamda presedent birliklarning milliy-madaniy kodni shakllantirishdagi ahamiyatini aniqlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Boborahim Mashrab, presedent nom, presedent birlik, lingvopoetika, lingvokulturologiya, poetik obraz, milliy-madaniy xotira, tasavvuf, irfoniy tafakkur, ramziy ma'no, assotsiativlik, intertekstual aloqa, tarixiy nomlar, diniy nomlar, badiiy matn.

Presedent nomlar muayyan lingvomadaniy jamoa uchun umumiy bo'lgan, matnda shaxs yoki obyektni oddiy belgilash uchun emas, balki o'ziga xos madaniy belgi, muayyan fazilatlar va xususiyatlarning ramzi sifatida qo'llaniladigan taniqli

xususiy ismlar sifatida talqin etiladi[1]. Mazkur termin tilshunoslikka N. Karaulov tomonidan olib kirilgan bo‘lib, u pretsedent birliklar tarkibiga shaxs nomlari, barqaror so‘z birikmalari, jumlalar hamda matnlarni kiritgan[2]. O‘zbek tilshunosligida presedent nomlarning lingvopoetik tadqiqi D. Xudoyberganovaning “O‘zbek tilidagi badiiy matnlarning antropotsentrik talqini” nomli doktorlik dissertatsiyasida alohida o‘rin tutadi, bu kabi tadqiqotlar orqali badiiy matndagi muallif niyatini yoritishda muhim vosita bo‘la olishi qayd etilgan.

Boborahim Mashrab she’riyatida presedent nomlar bir necha muhim lingvopoetik funksiyani bajaradi. Badiiy matnda presedent nomlar qo‘llanganda ular allyuziv nom sifatida matnni shakllantiradi, matnning intertekstualligini ta’minlaydi, komik effekt hosil qiladi, salbiy yoki ijobiy bahoni ekspressiv ifodalaydi, kuchli his-hayajonni ifodalaydi, turli ma’nodagi murojaatni ifodalaydi hamda badiiy san’atlarni yuzaga keltiradi[3] Xususan, Mashrab she’riyatida presedent nomlar orqali talmeh san’ati keng qo‘llanadi. Talmihda shoir mashhur bir qissa, voqea yoki asarga ishora qilish orqali o‘z fikrini muxtasar hikoya qiladi. Mashrab ham turli munosabatlar bilan talmih san’atiga murojaat etadi.

Mashrab g‘azallarida presedent nomlarning bir necha turi uchraydi. Qur’oniy va diniy presedent nomlar qatoriga Odam, Havvo, Nuh, Muhammad, Karbalo, Ka’ba kabi nomlar kiradi. Masalan, “Menga irshod bersang, Odamu Havvoni hozir qil, G‘aribu xastaman, Nuhi nabiyulloni hozir qil” baytida Odam, Havvo va Nuh nomlari presedent birlik sifatida tilga olinib, insoniyatning ilk yaratilishi va to‘fondan keyingi avlodlar haqidagi islomiy rivoyatlarni eslatadi. Karbalo so‘zi esa “Tashnalab qolgan o‘shal mardi Xudodin o‘rgulay, Motam-u afg‘oni dashti Karbalo kelturmisham” baytida presedent birlik sifatida qo‘llanib, uning yuzaga chiqishida dasht, shahid, qon, qizil qon so‘zlari tayanch so‘z sifatida xizmat qilgan. [4] Ka’ba nomi esa “Xonaqou Ka’badin, Mashrab, muroda yetmadim, May ichibon

[1] Nuriddinova K. B. Boborahim Mashrab g‘azallarida presedent birliklar va ularning uslubiy xususiyatlari // Eurasian Journal of Academic Research. – 2023. – T. 3. – № 1. – B. 93.
[2] Yakubova S. Pretsedent birlik va pretsedent nom, ularning o‘zbek lingvomadaniy jamiyatida qo‘llanishi // Zenodo. – 2023. – DOI: 10.5281/zenodo.7789626.
[3] Nuriddinova K. B. Boborahim Mashrab g‘azallarida presedent birliklar va ularning uslubiy xususiyatlari // Eurasian Journal of Academic Research. – 2023. – T. 3. – № 1. – B. 94.
[4] Ko‘rsatilgan maqola. – B. 94-95.

sokini butxona bo‘ldum oqibat” misolida inson ko‘ngliga nisbat sifatida metaforik ma’noda qo‘llangan.

Adabiy va tarixiy presedent nomlar qatoriga Hotam, Majnun, Suqrot kabi shaxslar nomi kiradi. “Gar saxovating jahonni tutsa chun Hotam sifat, Ishq riyodin xoli yo‘q, sohib saxovatman dema” baytida Hotam nomi saxiylik ramzi sifatida qo‘llangan. Bu esa mumtoz she’riyatda keng tarqalgan talmeh san’ati bilan bog‘liq bo‘lib, shoir o‘quvchining kognitiv bazasidagi taniqli obrazlarga ishora qiladi. Mashrab she’riyatida tasavvufiy-adabiy presedent nomlar ham alohida o‘rin tutadi. Mansur Halloj obrazi Mashrab she’riyatida markaziy o‘rinni egallaydi. Halloj “Anal-Haq” degani uchun qatl etilgan bo‘lsa, Mashrab ham xuddi shu yo‘lni davom ettirib, o‘zining “telba”ligini ilohiy ishqning belgisi sifatida talqin qiladi. Shoir o‘zini “shoh Mashrab” deb atagan darajaga yetadi, ammo bu shohlik dunyoviy emas, ishq shohligidir[5]. Topopoetonimlar va muqaddas joy nomlari ham Mashrab g‘azallarida presedent birlik sifatida keng qo‘llanadi. Badiiy matnda qahramonlar nutqini xoslashtirishda, intertekstuallikni hosil qilishda va badiiy matnning makoniy individualligini ta’minlashda topopoetonimlardan keng foydalaniladi. Mashrab g‘azallarida Karbalo, Ka’ba, Jannat kabi muqaddas joy nomlari presedent birlik sifatida qo‘llanib, matnda ifodalangan g‘oyaning shakllanishiga va badiiy mazmunni ekspressiv tarzda ifodalashga xizmat qiladi

Mashrab she’riyatida presedent nomlar orqali shoir o‘quvchining kognitiv bazasidagi umumiy bilimlarga tayanib, she’rning ta’sirchanligini oshiradi, matnning ko‘pqatlamliligini ta’minlaydi va intertekstuallikni yuzaga keltiradi. Presedent nomlarning lingvopoetik tahlili nafaqat Mashrab she’riyatini, balki umuman o‘zbek mumtoz adabiyotining badiiy tafakkur darajasini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shoir “Arsh kursi, lavh, qalamni sayr etib oldim javob, Man Muhammadni suyub do‘sti xudo qildim bu kun” baytida Arsh, Lavh, Qalam kabi ilk yaratilgan narsalarni eslab, me’roj voqeasiga ishora qiladi. Bu esa Mashrab she’riyatida presedent nomlarning nafaqat dunyoviy, balki ilohiy-ma’rifiy

[5] Tursunov A. Mashrab she’riyatida o‘zlikni anglash yo‘li // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – T. 1. – № 9. – B. 189-196.)

qatlamda ham faoliyat ko‘rsatishini ko‘rsatadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Boborahim Mashrab she’riyatida presedent nomlar an’anaviy talmeh san’atining tasavvufiy mazmun bilan boyitilgan shakli sifatida namoyon bo‘ladi. Ular shoirning ishqiy kechinmalarini, ijtimoiy dardini va ilohiy ishtiyoqini ixcham, ta’sirchan va ko‘pqatlamli tarzda ifodalashga xizmat qiladi. Presedent nomlarning lingvopoetik va lingvokulturologik tahlili Mashrab she’riyatining mumtoz an’analar bilan aloqasini, shuningdek, uning o‘ziga xos badiiy yangiligini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Boborahim Mashrab. Devoni Mashrab. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018.

2. Karaulov Yu. N. Russkiy yazyk i yazykovaya lichnost. – Moskva: Nauka, 1987.

3. Krasnyx V. V. Etnopsixolingvistika i lingvokulturologiya. – Moskva: Gnozis, 2002.

4. Xudoyberganova D. Matnning antropotsentrik tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2013.

5. Mahmudov N., Xudoyberganova D. O‘zbek tilidagi o‘xshashliklarning izohli lug‘ati. – Toshkent: Ma’naviyat, 2013.

6. Nuriddinova K. B. Boborahim Mashrab g‘azallarida presedent birliklar va ularning uslubiy xususiyatlari // Eurasian Journal of Academic Research. – 2023. – T. 3. – № 1. – B. 93–97.

7. Tursunov A. Mashrab she’riyatida o‘zlikni anglash yo‘li // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – T. 1. – № 9. – B. 189–196.

8. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2006.